

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10710332>

Soliyeva Mubinaxon, *ADCHTI talabasi*

Ilmiy rahbar J.Egamberdiyev, *ADCHTI*

Annotatsiya: *Davlatlararo hamkorlik rivojlanar ekan, tarjima sohasiga ehtiyoj yanada ortib boraveradi. Har bir davlatning o'ziga xos tili, madaniyati, dini mavjudligi tufayli, biz tarjima sohasida ba'zi muammolarga duch kelishimiz mumkin. Asosan, so'zlashuv va badiiy uslubda qo'llaniluvchi maqol, ibora va idiomalar ham shular jumlasidandir. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tarjima sohasidagi muammolarning biri hisoblangan ibora, maqol va idiomalar tarjimasi ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlari: *tarjima, muammo, maqol, ibora, idioma, shakl, ma'no, so'zlashuv uslubi, badiiy uslub.*

Hozirgi kunda o'zbek va ingliz tarjima sohalari jadal rivojlanayotgani ma'lum va o'zbek tili ham ingliz tili ham o'zining lug'at boyligi va grammatikasiga ega. Shu sababli o'zbek tilidan ingliz tiliga, ingliz tilidan o'zbek tiliga og'zaki yoki yozma tarjima qilishda bir qancha muammolar yuzaga keladi.

O'zbek xalqi so'zlashuv va badiiy uslublarida vaziyatga qarab ibora va maqollardan keng tarzda foydalanadi. Aynan shu ibora va maqollarni ingliz tiliga tarjima qilishda qiyinchilik kelib chiqishi mumkin. Ba'zi o'zbek maqollari ingliz tiliga to'gridan-to'g'ri, so'zma-so'z tarjima qilinadi: "Otning o'limi – itning bayrami". Ushbu maqol ingliz tiliga quyidagicha tarjima qilinadi: "The death of a horse is a celebration of a dog". Ko'rinib turibdiki, tarjimaning ma'nosi ham shakli ham o'zgarmagan, shunchaki so'zlari ingliz tiliga tarjima qilingan.

Lekin ibora yoki maqolni to'g'ridan-to'g'ri ingliz tiliga tarjima qilib bo'lmasachi? Bu vaziyatda ingliz tilida shakli boshqa ammo ma'nosi izlangan ma'noni beruvchi ibora, idioma yoki maqollardan foydalaniladi. Misol uchun: "Yog' tushsa yalagudek" iborasini ingliz tiliga "Clean as a whistle" deya tarjima qilish mumkin. Agar bu ibora ingliz tiliga to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinsa, ma'nosi tushunarsiz bo'lib qoladi va o'zbek tilida ham ingliz tilida ham yog' va hushtak so'zlari orasida bog'liqlik mavud emas.

Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilayotganda ham maqol va idiomalarning ma'nosini chuqur anglab yetish lozim. Chunki ba'zi ingliz idiomalari ikki xil ma'noni beradi. Masalan: "A piece of cake" idiomasi ham "tortning bir bo'lagi" ma'nosini ham "oson" ma'nosini beradi. Bu holatda biz gapning yoki matnning nima haqida ekanligiga qarab tarjimini amalga oshiramiz. Agar "oson" ma'nosida kelsa, "Xamirdan qil sug'urganday" iborasini qo'llash maqsadga muvofiq. Ammo ikkalasi ham rasmiy tarjimalarda deyarli qo'llanilmaydi.

Ba'zi ingliz maqol va idiomalarini o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib bo'lmaydi chunki ular o'zbek madaniyatiga mos kelmasligi mumkin. Ularni qog'ozga o'rab, yanada ibratini oshirib tarjima qilish darkor, lekin ma'nosi o'zgarib ketmasligi kerak: "Evil doers are evil dreaders. Evil to him who evil thinks". Ushbu ingliz maqolini o'zbek tiliga: "Torga tor dunyo, kengga keng dunyo" kabi tarjima qilsak to'g'ri bo'ladi.

Ba'zi o'zbek maqol va iboralarining tarjimasi bir xil bo'lishi mumkin. Masalan: "Avval taom, bad'az kalom" , "Avval iqtisod, keyin siyosat". Ikkalasi ham ingliz tiliga "A hungry belly has no ears" deya tarjima qilinadi. "Mexmonda yaxshi, uyda undanda yaxshi" va "O'z uying - o'lan to'shaging" kabi ma'nosi bir biriga yaqin maqollarning ham inglizcha tarjimasi bir xil amalga oshiriladi: "East or west – home is the best"

Xulosa qilib aytganda, tarjimani ehtiyotkorlik bilan, ma'no-mazmunini chuqur anglab amalga oshirish kerak. Maqol, ibora, idiomalarni to'g'ri, o'rinli tarjima qilish ham bir mahorat hisoblanadi. Zero ular og'zaki nutqning va badiiy asarlarning ajralmas bir bo'lagi va bezagidir. Ular orqali bir insonning so'zlari boshqa bir insonga osonroq va ta'sirliroq yetib boradi va maqol, ibora, idiomalardan keng foydalangan va ularni o'rnida qo'llay olgan insonning so'z boyligi ham, dunyoqarashi ham keng hisoblanadi.